O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

AXMEDOV ABDULATIF MASHRAPOVICH

MAJBURIY MEHNATGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura.

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026-yil

UO‘K: 347.963:341.324.6 (575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the dissertation abstract for the Doctor of Philosophy (PhD) degree

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Axmedov Abdulatif Mashrapovich
Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish……..... 3

Ахмедов Абдулатиф Машрапович
Совершенствование прокурорского надзора за исполнением законодательства в сфере противодействия принудительному труду….. 25

Akhmedov Abdulatif Mashrapovich
Improving Prosecutorial Supervision over the Implementation of Legislation in the Field of Combating Forced Labour…….. 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….. 56

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

AXMEDOV ABDULATIF MASHRAPOVICH

MAJBURIY MEHNATGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Yu1314 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.proacademy.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Komilov Avazbek Bokijonovich** yuridik fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Sultonov Oybek Sultonboyevich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 30-noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 202-04-96, e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (108-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 202-04-96.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 17-noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 17-noyabr kunidagi 27-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Aminjonova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

X.A.Quchqarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.S.Odinayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda majburiy mehnat hanuzgacha inson huquqlarining eng ommaviy buzilish shakllaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (keyingi o‘rinlarda - XMT), Walk Free va Xalqaro migratsiya tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 49,6 million kishi zamonaviy qullik holatida bo‘lib, shundan 27,6 million nafari majburiy mehnat qurboni hisoblanadi. Zamonaviy qullikdagi shaxslarning 12 milliondan ortig‘ini, ya’ni taxminan har to‘rttadan birini bolalar tashkil etadi[1]. Xalqaro mehnat tashkilotining 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, majburiy mehnatdan noqonuniy olinadigan yillik daromad 236 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi[2]. Ushbu ko‘rsatkichlar majburiy mehnatga qarshi kurashishni xalqaro hamjamiyatning ustuvor vazifalaridan biriga aylantirgan.

Jahonda majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi ishlar majburiy mehnatni qonunda mustaqil jinoyat tarkibi sifatida belgilash, mehnat inspeksiyasi tizimini kuchaytirish hamda nazoratni xavf tahliliga asoslangan raqamli monitoringga o‘tkazish kabi uchta asosiy yo‘nalishda olib borilmoqda. Xususan, Xalqaro mehnat tashkilotining 2025-yilning may oyidagi «Majburiy mehnatni jinoiy deb topish» analitik hujjatida majburiy mehnat og‘ir jinoyat bo‘lgani sababli ma’muriy sanksiyalarning o‘zi yetarli emasligi qayd etilgan[3]. Yevropa Ittifoqining 2024-yil 27-noyabrdagi 2024/3015-son Reglamenti esa majburiy mehnat bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bozorga kiritishni taqiqlab, nazoratning xavfga asoslangan modelini majburiy mehnatga qarshi kurashishning huquqiy vositasiga aylantirdi[4].

Mamlakatimizda 2021-2025-yillar va 2026-yilning 9 oyida mehnatga ma’muriy tarzda majburlash bilan bog‘liq 246 ta huquqbuzarlik qayd etilib, 1 922 nafar fuqaro majburiy mehnatga jalb qilingan bo‘lsa, ularning 1 074 nafarini ayollar, 67 nafarini voyaga yetmaganlar tashkil etgan. Bitta huquqbuzarlik holatiga to‘g‘ri keladigan jabrlanuvchilar soni so‘nggi besh yilda 4 nafardan 8 nafarga oshganligi majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining yetarli samara bermayotganligidan dalolat beradi[5].

Ayni paytda sohadagi prokuror nazoratining holati uni takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan 246 ta ma’muriy qaror, 38 ta prokuror

---

[1] Global Estimates of Modern Slavery: Forced Labour and Forced Marriage / International Labour Organization, Walk Free, International Organization for Migration. – Geneva: ILO, 2022. - P. 2, 20. - ISBN 978 92 2 037483 2. - URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/2025 09/ILO_GEMS 2022_Report_EN_Web.pdf.

[2] Profits and Poverty: The Economics of Forced Labour. – 2nd ed. – Geneva: International Labour Organization, 2024. – 36 p. – P. 1, 13. – ISBN 978-92-2-040422-5. – DOI: 10.54394/JJJE9035. – URL: https://doi.org/10.54394/JJJE9035.

[3] International Labour Organization. Criminalization of Forced Labour. ILO Brief: Promising Practices in Addressing Forced Labour. – Geneva: ILO, May 2025. - 5 p. – P. 1. – DOI: 10.54394/HKHH7594. – URL: https://www.ilo.org/publications/criminalization-forced-labour.

[4] Regulation (EU) 2024/3015 of the European Parliament and of the Council of 27 November 2024 on prohibiting products made with forced labour on the Union market and amending Directive (EU) 2019/1937 // Official Journal of the European Union. - L, 2024/3015, 12.12.2024. - URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/3015/oj.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2026-yil 12-oktyabrdagi 01/00-01/14-4537-son xati bilan taqdim etilgan 2021-2025-yillar va 2026-yilning 9 oyida majburiy mehnat uchun qo‘llanilgan ma’muriy jarimalar to‘g‘risidagi hisobotlar.

nazorati hujjati, 11 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish bo‘yicha to‘plangan hujjatlar va 13 ta sud qarori tahlili nazoratdagi uch yo‘nalishdagi tizimli kamchilikni aniqlash imkonini berdi. Birinchidan, nazorat hududlar kesimida bir xilda olib borilmayapti, ikkinchidan, huquqbuzarliklarning 74 foizi byudjet tashkilotlariga to‘g‘ri keladi, uchinchidan, o‘rganilgan 13 ta sud ishining 9 tasida majburlash faktini tasdiqlovchi obyektiv dalil taqdim etilmagan, 3 ta holatda sud idoraviy nazorat organining qarorini bekor qilgan[1]. Ushbu statistik ko‘rsatkichlar va xalqaro tavsiyalar sohadagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), Mehnat kodeksi (2022), Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (1994) va Jinoyat kodeksi (1994), «Prokuratura to‘g‘risida»gi (2001), «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi (2020) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2023), «Raqamli prokuratura - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi (2025) farmonlari, «Mehnat sohasida xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhitini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2026) qarori, Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2018), «Davlat organlari va tashkilotlarida mehnat sohasida xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhitini ta’minlash mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2026) qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati masalalari yuridik adabiyotda turli jihatlardan o‘rganilgan. Majburiy mehnat va mehnat huquqining moddiy-huquqiy jihatlari M.M.Mamasiddiqov, J.A.Rasulov, D.S.Abdullayeva, Sh.A.Ismoilov va X.Q.Mirsoatov, mavzuning prokuror nazoratiga oid qismi sohalar kesimida M.M.Boboyev, Sh.B.Jumayev, D.Sh.Ibragimov, A.B.Komilov, O.M.Madaliyev, B.H.Po‘latov, M.H.Rustamboyev, F.X.Raximov, U.A.Tuxtasheva kabi milliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDHga a’zo davlatlarda mehnat qonunchiligi ijrosi ustidan nazorat, prokuror nazoratining predmeti, obyektlari va chegaralari, shuningdek prokuror tekshiruvini tashkil etish masalalari A.Z.Agababyan, A.Yu.Vinokurov, Yu.Ye.Vinokurov, V.G.Bessarabov, V.V.Gavrilov, Ye.R.Yergashev, A.X.Kazarina, O.N.Korshunova,

[1] O‘zbekiston Respublikasi sudlarining ochiq ma’lumotlar portali. – URL: https://public.sud.uz/report/CRIMINAL (murojaat sanasi: 14.09.2026).

V.D.Lomovskiy, A.V.Palamarchuk, L.V.Potapova, T.Yu.Sabelfeld, B.M.Spiridonov, K.F.Skvortsov, N.V.Subanova, I.N.Trizno va V.B.Yastrebovlar tomonidan tadqiq etilganligi dissertatsiya mavzusi doirasidagi muammolarga ilmiy qiziqish yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Xorijiy olimlar K.N.Ruwanpura, P.Rai, K.Skrivankova va H.Lewis tomonidan majburiy mehnat tushunchasi, uning indikatorlari va ekspluatatsiya darajalari, B.Andrees, A.Aikman, A.Marx, J.Wouters, G.Casale va G.Davidov tomonidan majburiy mehnatning xalqaro-huquqiy tavsifi, unga qarshi xalqaro vositalar va mehnat inspeksiyasi faoliyati kabi masalalar o‘rganilgan[1].

O‘zbekistonda majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmeti, obyekti, tashkiliy-huquqiy asoslari va raqamlashtirish masalalari kompleks tarzda tadqiq etilmagan, alohida monografik tadqiqot o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining 2023-yil 29-noyabrdagi (19-son bayonnoma) Ilmiy kengash majlisida tasdiqlangan va muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining nazariy-huquqiy asoslarini va tashkiliy mexanizmini, shu jumladan uni raqamlashtirishning huquqiy modelini asoslash hamda qonunchilik va amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

majburiy mehnat tushunchasi, uning yuridik belgilari va baholash mezonlarini ochib berish hamda uni turdosh huquqiy hodisalardan farqlash mezonlarini ishlab chiqish;

majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining tushunchasi, predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslash;

majburiy mehnatga qarshi kurash sohasidagi prokuror nazoratining xalqaro va milliy huquqiy asoslarini tizimli tahlil qilish;

majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida prokuror nazoratini amalga oshirishdagi tizimli kamchiliklarni statistika, prokuror hujjatlari va sud amaliyoti asosida tahlil qilish;

majburiy mehnat uchun javobgarlik va idoraviy nazoratga doir qonunchilikdagi bo‘shliqlarni aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks hamda «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

prokuror tekshiruvlarini rejalashtirish va tashkil etishning sohaviy modelini, shu jumladan majburiy mehnat xavfi indikatorlarini ishlab chiqish;

[1] Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

xorijiy davlatlarda majburiy mehnatga qarshi kurashishda prokuratura faoliyatini tashkil etish modellarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish va milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini asoslash;

majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida prokuror nazoratini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy modeli hamda chegarasini belgilash.

Tadqiqotning obyekti majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirishning nazariy-amaliy masalalari bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy va milliy normativ-huquqiy hujjatlar, prokuror nazorati va idoraviy nazorat amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahlil, sotsiologik so‘rov, hujjatlarni kontent-tahlil qilish, statistik va empirik ma'lumotlarni tahlil etish, qonunchilik hujjatlarini sharhlash, huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

majburiy mehnat xavfi agrar sektorda mavjudligi sababli qishloq xo‘jaligi bo‘yicha davlat mehnat inspektorlari institutini joriy etish zarurati ilmiy asoslantirilgan;

majburiy mehnat dalillarining tez yo‘qolishi va majburlashning og‘zaki shaklda amalga oshirilishi xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat mehnat inspektorlari faoliyatini texnik vositalar bilan ta'minlash, xususan, paxta dalalari va ish joylarida mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan kuzatuv kameralari (body yoki mobil) yordamida monitoring olib borish lozimligi asoslantirilgan;

Davlat mehnat inspeksiyasi tekshiruvlarini elektron tizimda ro‘yxatdan o‘tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibiga o‘tkazish zarurati asoslantirilgan;

majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, nazoratning maqsadi hamda oltita o‘ziga xos xususiyati aniqlangan va qonunchilik talablari buzilishini aniqlash mexanizmi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Majburiy mehnat tushunchasi», «majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati», «majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi» tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, «hujjatning qonuniyligi holatning qonuniyligini anglatmaydi» degan metodologik qoida ilgari surilgan;

majburiy mehnat taqiqidan istisno qilinadigan ishlarning qonuniyligini baholashning: ishni bajarishning aniq normativ-huquqiy asosga egaligi, obyektiv zaruratning mavjudligi, ish hajmi va davomiyligining ko‘zlangan maqsadga mutanosibligi, kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, xavfsiz mehnat sharoitlarining

ta’minlanishi, samarali davlat nazoratining mavjudligi, shaxsning shikoyat qilish imkoniyati kafolatlanganligi hamda mahkumning xususiy subyekt ixtiyoriga majburan berilmasligi kabi sakkizta mualliflik mezoni ishlab chiqilgan;

majburiy mehnat uchun jinoiy javobgarlikni belgilashda ma’muriy preyuditsiyani bekor qilish hamda qilmishni ikki yoki undan ortiq shaxslarga nisbatan sodir etishni malakalovchi belgi sifatida kiritish zarurati xalqaro standartlar talablari va xorijiy davlatlar qonunchiligining qiyosiy tahlili asosida asoslantirilgan;

majburiy mehnat xavfining oltita o‘lchanadigan indikatori va ular asosida nazorat obyektlarini indikatorlar salmog‘i bo‘yicha toifalash modeli ishlab chiqilib, prokuror tekshiruvini rejalashtirishning sohaviy asosi sifatida taklif etilgan;

«elektron prokuror nazorati» huquqiy kategoriyasi va prokuror nazoratini raqamlashtirishning ikki bosqichli modeli, ya’ni axborot-tahliliy bosqichni avtomatlashtirish va huquqiy baholashni prokuror vakolatida saqlab qolish asoslantirilib, ushbu chegara raqamli nazoratning asosiy huquqiy kafolati sifatida belgilangan;

Jinoyat kodeksining 148²-moddasini va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksni o‘zgartirishga doir qonun loyihalari, «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunga elektron prokuror nazorati institutini kirituvchi takliflar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi «Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida»gi 431-son qarori bilan tasdiqlangan «Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma’muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida»gi Nizomning 3-ilovasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida takliflar ishlab chiqilib, ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorning elektron shakliga «Ishni ko‘rib chiqish chog‘ida aniqlangan holatlarning bayoni» maydonini kiritish asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining sohaviy buyrug‘iga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha loyiha, prokuror tekshiruvini o‘tkazishning Namunaviy tekshirish rejasi loyihasi hamda prokuratura va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining axborot tizimlarini integratsiya qilish bo‘yicha Tartib loyihasi tayyorlangan;

prokuror nazoratini raqamlashtirish samaradorligini baholashning yettita indikatori taklif etilgan;

«Mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati» nomli elektiv kurs ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining «Proacademy 2.0» elektron ta’lim portaliga joylashtirilgan;

«Majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati» mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining «Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati» o‘quv modulida aks etgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, 143 ta davlat (yurisdiksiya) qonunchiligining qiyosiy-huquqiy tahlili, huquqni qo‘llash va sud amaliyoti materiallari, O‘zbekiston

Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2021–2025-yillar va 2026-yilning 9 oyidagi rasmiy hisobotlari, prokuratura organlarining hisobot ma’lumotlari hamda muallif tomonidan 8 590 nafar prokuratura organlari xodimi ishtirokida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalariga asoslangan.

Shuningdek, tadqiqot doirasida prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilgan 11 ta material, 38 ta prokuror nazorati hujjati, 13 ta sud qarori hamda davlat mehnat inspektorlari tomonidan mehnatga ma’muriy tarzda majburlaganlik uchun chiqarilgan 246 ta ma’muriy qaror o‘rganilib, ularning tahlil natijalaridan foydalanilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, natijalari milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi «Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-184-son Farmoni, 2025-yil 10-dekabrdagi «Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-246-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-noyabrdagi 706-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to‘g‘risida»gi Nizomni ishlab chiqishda foydalanilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan mualliflik ta’riflari, tasniflar va modellar prokuror nazorati nazariyasini boyitishi hamda majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan qonun ijodkorligi jarayonida, prokuratura organlari va Davlat mehnat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etishda, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek yuridik oliy ta’lim muassasalarida «Prokuror nazorati», «Mehnat huquqi» va «Inson huquqlari» modullarini ilmiy-nazariy boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

majburiy mehnat xavfi agrar sektorda mavjudligi sababli qishloq xo‘jaligi bo‘yicha davlat mehnat inspektorlari institutini joriy etish zarurligi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-noyabrdagi 706-son qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to‘g‘risida»gi Nizomning 65-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2026-yil 12-oktabrdagi 01/00-04-10908-son dalolatnomasi).* Mazkur taklifning joriy etilishi agrar sektorda idoraviy nazoratning institutsional asosini yaratishga hamda Xalqaro mehnat tashkilotining 129-son Konvensiyasi 3-moddasi talabini amalda bajarishga xizmat qilgan;

majburiy mehnat dalillarining tez yo‘qolishi va majburlashning og‘zaki shaklda amalga oshirilishi xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat mehnat inspektorlari faoliyatini texnik vositalar bilan ta’minlash, xususan, paxta dalalari va ish joylarida mehnat

qonunchiligiga rioya etilishi ustidan kuzatuv kameralari (body yoki mobil) yordamida monitoring olib borish lozimligi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi «Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-246-son Farmonining 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 24-sentabrdagi 27/2-394-26-son dalolatnomasi).* Mazkur taklifning joriy etilishi nazorat jarayonining shaffofligini oshirishga, majburiy mehnat bo‘yicha dalil bazasini mustahkamlashga hamda inspektorning o‘z faoliyati ustidan hisobdorligini ta’minlashga xizmat qilgan;

Davlat mehnat inspeksiyasi tekshiruvlarini elektron tizimda ro‘yxatdan o‘tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibiga o‘tkazish lozimligi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi «Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-184-son Farmonining 2-ilovasi 3-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha devonining 2025-yil 8-maydagi 02-20-7115-son dalolatnomasi).* Mazkur taklifning joriy etilishi tekshiruvni oldindan kelishish zarurati va vaqt yo‘qotilishini bartaraf etib, inspektorning nazorat ostidagi obyektga kechiktirmasdan kirishini hamda majburiy mehnatga doir dalillarning sodir etilgan paytning o‘zida qayd etilishini ta’minlashga hamda Xalqaro mehnat tashkilotining 81 va 129-son konvensiyalari talablarini amalda bajarishga xizmat qilgan;

majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati tushunchasi, maqsadi, ushbu nazoratning o‘ziga xos xususiyatlari hamda majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini aniqlash mexanizmlariga doir xulosalaridan «Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati» darsligini *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 12-noyabrdagi № 9325-8169-1432-e07d-4709-3462-6621-son ruxsatnomasi*) tayyorlashda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining 2026-yil 25-iyuldagi № 30/23-305/26-sonli dalolatnomasi).* Mazkur taklifning joriy etilishi majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi prokuror nazoratining tushunchasi, maqsadi, o‘ziga xos xususiyatlarini, ushbu qonunchilik ijrosi ustidan tekshiruv o‘tkazish tartibini o‘quv adabiyotida mustahkamlashga hamda prokuratura organlarida malakali kadrlarni tayyorlash jarayoniga tatbiq etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, OAK tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 ta milliy va 2 ta xorijiy jurnallarda, konferensiyalarda 6 ta, shundan 2 ta xalqaro, 4 ta milliy maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining nazariy va huquqiy asoslari» deb nomlanib, unda majburiy mehnat tushunchasi, belgilari va huquqiy tavsifi, sohadagi prokuror nazoratining tushunchasi, predmeti, obyekti va o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek mazkur nazoratning xalqaro va milliy huquqiy asoslari tadqiq etilgan.

Ushbu bobning «Majburiy mehnat tushunchasi, belgilari va huquqiy tavsifi» deb nomlangan birinchi paragrafida muallif xalqaro-huquqiy tartibga solishni tahlil qilib, majburiy mehnatga oid xalqaro standartlar to‘rt tarkibli tuzilma ekanini ko‘rsatadi. Xususan, Xalqaro mehnat tashkilotining 29-son Konvensiyasi majburiy mehnatning ta’rifi va tugal chegaralarini, 105-son Konvensiyasi taqiqlanadigan maqsadli ko‘rinishlarni belgilaydi, 2014-yilgi Bayonnoma jabrlanuvchini himoya qilish va zararni qoplash mexanizmini qo‘shadi, BMT hujjatlari esa muammoni barqaror rivojlanish kun tartibiga bog‘laydi.

Dissertant «yuridik belgi»ni – holatni majburiy mehnat deb baholash uchun aniqlanishi shart bo‘lgan holatni – uning mavjudligini taxmin qilishga imkon beruvchi «ko‘rsatkich»dan farqlaydi. Shu mezon asosida J.Rasulov ajratgan to‘rtta belgi ikki asosiy belgiga keltiriladi, N.Gluxova, A.Kursayev, K.Skrivankova, M.Smit, K.N.Ruwanpura, P.Rai, H.Lewis va V.Jernakovning yondashuvlari esa ko‘rsatkich darajasida baholanib, ikki darajali yuridik tuzilish – ikkita asosiy belgi hamda ularni aniqlashga xizmat qiluvchi to‘rtta baholash mezoni – asoslantiriladi.

Ushbu tuzilishdan kelib chiqib tadqiqotchi majburiy mehnat tushunchasiga mualliflik ta’rifini beradi va uni Mehnat kodeksining 5-moddasidagi dispozitsiya o‘rniga joriy etishni taklif qiladi. Ta’rifning amaldagi normalardan farqi uchta jihatda ko‘rinadi: u rozilikni statik emas, dinamik holat sifatida baholaydi, ishni erkin tark etish imkoniyatini mustaqil (uchinchi) unsur yoki qo‘shimcha shart sifatida emas, balki ixtiyoriylik yo‘qligining namoyon bo‘lish shakllaridan biri sifatida aks ettiradi, jazo tahdidini moddiy, jismoniy va ruhiy ta’sir choralari bilan bir qatorda huquq va qonuniy manfaatlarni cheklash orqali ham ifodalaydi. Ta’rif «Majburiy yoki zo‘raki mehnat to‘g‘risida»gi 1930-yilgi 29-son Konvensiya 2-moddasidagi ta’rifning ikkita asosiy belgisini to‘liq saqlab, uni milliy darajada aniqlashtiradi va Konvensiya qamrovini toraytirmaydi. Amaliyotchilarning bahosi ham ta’rifga mos keladi: sotsiologik so‘rovda

2 221 nafar respondent (umumiy tanlanmaning 26 foizi) majburlashning og‘zaki va yashirin shaklda amalga oshirilishini majburiy mehnat holatlarini aniqlash va isbotlashdagi eng ko‘p qayd etilgan to‘siq sifatida ko‘rsatgan.

Muallif majburiy mehnatni turdosh huquqiy hodisalardan – mehnatga ma’muriy tarzda majburlash, qullik, odam savdosi, mehnat ekspluatatsiyasi, bolalar mehnati va haq to‘lanmaydigan mehnatdan farqlashning beshta mezonini (huquqiy nazoratning obyekti, qilmishning tuzilishi, majburlashning funksiyasi, shaxs ustidan amalga oshirilgan nazorat darajasi va hodisaning mustaqil huquqbuzarlik yoki boshqa jinoyat maqsadi sifatida namoyon bo‘lishi) ishlab chiqadi. Shuningdek, majburiy mehnat taqiqidan istisno qilinadigan ishlarning qonuniyligini baholash uchun sakkizta mezon taklif etiladi. Dissertant Xalqaro mehnat tashkiloti Konstitutsiyasining 19-moddasi 8-bandiga tayangan holda, istisnolarning milliy qonunchilikda torroq belgilanishi shaxs uchun yuqoriroq kafolat yaratishini va Mehnat kodeksini XMTning 29-son Konvensiyasidagi ikki holat (odatdagi fuqarolik burchlari hamda jamoa a’zolarining bevosita manfaati uchun bajariladigan mayda jamoat ishlari) bilan to‘ldirishga zarurat mavjud emasligini asoslaydi. Hasharning huquqiy maqomi noaniqligidan kelib chiqib, Mehnat kodeksiga istisno kiritish o‘rniga hasharni tashkil etishning ixtiyoriyligini ta’minlovchi protsedura belgilash va uning bajarilishini prokuror nazorati predmetiga kiritish taklif etiladi.

Keyingi paragraf sohada prokuror nazoratining tushunchasi, predmeti, obyekti va o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. B.Po‘latov, V.Yastrebov, Yu.Vinokurov, V.Bessarabov, Ye.Yergashev, A.Kazarina va T.Sabelfeld kabi olimlarning qarashlari tahlil qilinib, amaldagi to‘rt bosqichli talqinda aniqlangan holatlarga huquqiy baho berish mustaqil mantiqiy bosqich sifatida aks etmaganligi qayd etiladi. Shundan kelib chiqib muallif sohaviy prokuror nazoratiga mualliflik ta’rifi beradi hamda nazoratning yagona maqsadini – taqiqlovchi normalarning to‘liq va bir xilda ijro etilishiga asoslangan qonuniylik holatiga erishishni – uning natijasi va ijtimoiy samarasidan farqlaydi.

Dissertant predmet va obyektni farqlashning mualliflik mezonini asoslaydi. Unga ko‘ra, predmet – qonun bilan yuklatilgan majburiyatning bajarilish holati, obyekt esa ushbu majburiyatning bajarilishi tekshiriladigan organ yoki tuzilmadir. Shu asosda nazorat predmetining besh unsurli modelini taklif etadi: 1) majburiy mehnatni taqiqlashga doir talablarga rioya etilishi; 2) mehnatga jalb etishga doir huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi; 3) mehnatga jalb etish va uni davom ettirishning ixtiyoriyligi; 4) jabrlanuvchi huquqlarini tiklash, zararni qoplash va aybdorlar javobgarligi masalasini hal etish majburiyatining bajarilishi; 5) xalqaro shartnoma normalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning huquqni qo‘llash amaliyotida bajarilishi. Nazorat obyektlari esa uch guruhga – vakolatli organlar, idoralararo muvofiqlashtirish tuzilmalari (milliy va hududiy komissiyalar), mehnatga jalb etishni tashkil qiluvchi va mehnatdan foydalanuvchi subyektlar (mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxona, tashkilot, muassasalar va ish beruvchilar) – ajratiladi.

Tadqiqotchi sohadagi prokuror nazoratining oltita o‘ziga xos xususiyatini ajratib ko‘rsatadi va ularga: predmetning yagonaligi va uni aniqlashda ikki xil axborot manbaiga tayanilishi, huquqbuzarlikning latentligi va axborot-tahliliy faoliyatning ustuvorligi, idoralararo yo‘nalganlik, jabrlanuvchiga qaratilganlik va uni javobgarlikdan ozod etish kafolati, profilaktik ustuvorlik hamda xalqaro-huquqiy o‘lchovning predmetga kiritilishini kiritadi.

Shuningdek, tadqiqotchi prokuror nazoratining huquqiy asoslarini ikki o‘lchovli tizim sifatida tasniflaydi. U xalqaro hujjatlarni yuridik kuchi bo‘yicha yuridik kuchga ega va tavsiyaviy guruhlarga ajratib, ratifikatsiya qilingan qismida ular milliy huquqiy tizimga kirgan normativ asos bo‘lishini ta’kidlaydi. Milliy asoslar esa yuridik kuchi bo‘yicha besh o‘rinli tizimga – Konstitutsiya, kodekslar, qonunlar, qonunosti hujjatlar va prokuraturaning idoraviy hujjatlariga ajratiladi.

Bundan tashqari, muallif yuridik kuchga ega xalqaro hujjatlar sirasiga XMTning 29 va 105-son konvensiyalarini, 2014-yilgi Bayonnomasini, 138 va 182-son konvensiyalarini kiritadi. Dissertantning fikricha, XMT 29-son Konvensiyasining amaliy ahamiyati, ayniqsa, iqtisodiy safarbarlik taqiqi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu mezon davlat va byudjet tashkilotlari xodimlarini mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga, obodonlashtirish va tozalash tadbirlariga ma’muriy yo‘l bilan jalb qilish amaliyotini huquqiy baholashning asosini tashkil etadi. 2014-yilgi Bayonnoma esa davlat zimmasiga profilaktika, jabrlanuvchilarni aniqlash, ozod qilish, himoya qilish va tiklash, reabilitatsiya qilish, huquqbuzarlarni javobgarlikka tortish va xalqaro hamkorlik bo‘yicha to‘rtta yo‘nalishdagi majburiyatni yuklaydi hamda shu asosda sohadagi prokuror nazoratini to‘rt bosqichda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkillashtirish»ga bag‘ishlanib, unda nazoratni amalga oshirishdagi tizimli kamchiliklar, qonunchilikdagi bo‘shliqlarning nazorat samaradorligiga ta’siri hamda prokuror tekshiruvlarini rejalashtirish va tashkil etish masalalari tadqiq etilgan.

Xususan, birinchi paragrafda 2021–2025-yillar va 2026-yilning 9 oyidagi rasmiy statistika, 246 ta ma’muriy qaror, 38 ta prokuror nazorati hujjati, 13 ta sud qarori va 11 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilgan material asosida sohadagi qonuniylik holati tahlil qilinadi. Muallifga ko‘ra, huquqbuzarliklar sonining 2021-yildan 2022-yilga qadar keskin kamayishi (75 tadan 26 taga) nazorat samaradorligining barqaror oshganini anglatmaydi: keyingi yillarda ularning soni qayta o‘sib, 2026-yilning 9 oyida 46 taga yetgan, bitta holatga to‘g‘ri keluvchi jabrlanuvchilar soni esa 2021-yildagi 4 nafardan 2025-yilda 8 nafarga, ya’ni qariyb ikki barobar oshgan (2024-yilda – 20 nafar, 2026-yilning 9 oyida – 5 nafar), tahlil qilingan butun davr bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich esa 8 nafarga teng. Hududlar o‘rtasidagi 23 barobar farq hodisaning tarqalishini emas, aniqlanish darajasini aks ettiradi. Jabrlanganlarning 1 074 nafari (56%) ayollar, 67 nafari voyaga yetmaganlar bo‘lib, voyaga yetmaganlarga oid holatlarning 70 foizi 2024–2025-yillarga to‘g‘ri kelishi aniqlangan.

Dissertant huquqbuzarliklarning tarmoq kesimidagi taqsimotini ochib beradi. Bunday huquqbuzarliklarning 183 tasi (74%) byudjet tashkilotlariga, shundan 107 tasi ta’lim tizimiga, 88 tasi esa umumiy o‘rta ta’lim maktablariga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotchi mas’ul vazirlik va idoralarning rasmiy hisobotlarini taqqoslab, 2023–2025-yillarda joriy ta’mirdan o‘tgan 1 980 ta maktabdan 593 tasida ta’mir davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilmagani, ya’ni byudjetdan tashqari manbalar hisobiga bajarilgani taxmin qilinishini kuzatadi (mazkur farq turli hisob doiralari bilan ham izohlanishi mumkinligi sababli faraz sifatida baholanadi). Shu asosda maktablarda joriy ta’mirlash va obodonlashtirish davrini mustaqil xavf indikatori, idoraviy hisobotlarni esa prokuror nazoratini rejalashtirish uchun axborot manbai sifatida e’tirof etishni taklif qiladi.

Muallif 38 ta prokuror nazorati hujjati va jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilgan 11 ta material asosida prokuror aralashuvining amaldagi shaklini ochib beradi: o‘rganilgan davrda qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida birorta ham tekshiruv o‘tkazilmagan, 38 ta hujjatning 35 tasi mansabdor shaxslarni rasman ogohlantirish, 2 tasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi qaror, 1 tasi protest shaklida qo‘llanilgan. Tadqiqotchi majburiy mehnat faktlari tushuntirish xatlari, mutaxassis xulosasi va boshqa hujjatlar bilan tasdiqlanishi mumkin bo‘lganda ham jinoyat ishi qo‘zg‘atish rad etilayotganini qayd etadi.

Sud amaliyoti tahlili idoraviy nazorat organi faoliyatidagi nuqsonlarni ochib beradi: o‘rganilgan 13 ta ishning 9 tasida majburlash faktini tasdiqlovchi obyektiv dalil taqdim etilmagan, 5 tasida huquqbuzarga huquqlari tushuntirilmagan, 4 tasida huquqbuzarlikning vaqti, joyi va tavsifi ko‘rsatilmagan, 1 tasi vakolatsiz shaxs tomonidan qabul qilingan. Dissertant ma’muriy ishlarning sud bosqichida tugatilishi qonunchilikdagi bo‘shliqdan emas, huquqbuzarlikni aniqlash, hujjatlashtirish va malakalash mexanizmining to‘liq ishlamasligidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi va prokuror nazorati predmetiga Davlat mehnat inspeksiyasi qarorlarining sudga taqdim etilishidan oldin axborot tizimlari orqali o‘rganilishini kiritishni taklif etadi.

Dissertant qonunchilikdagi bo‘shliqlarni tahlil qilib, Jinoyat kodeksining 148^2-moddasidagi ma’muriy preyuditsiyaga asoslangan tuzilish ham XMTning 29-son Konvensiyasi 25-moddasining talablariga (qilmishning jinoyat sifatida jazolanishi, jazoning haqiqatan yetarli bo‘lishi va qat’iy ijro etilishi), ham jinoyat huquqi nazariyasiga muvofiq emasligini asoslaydi: uningcha, jinoiylik mezoni qilmishning ijtimoiy xavfliligidan emas, aybdorning oldingi huquqiy maqomidan kelib chiqadi. U ma’muriy preyuditsiyani qo‘llab-quvvatlovchi to‘rtta dalilni ham tahlil qilib, ular umumiy jinoyat-huquqiy qoida sifatida asosli bo‘lsa-da, majburiy mehnat tarkibiga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emasligi haqida xulosaga keladi.

Ushbu xulosa xorijiy qonunchilikning qiyosiy-huquqiy tahlili bilan ham mustahkamlangan. Shu asosda muallif 148^2-moddani ma’muriy preyuditsiya shartidan ozod etish, qilmishni ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etishni malakalovchi belgi sifatida kiritish hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 51-moddasini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqadi.

Tadqiqotchi idoraviy nazoratning huquqiy asoslari XMTning 81 va 129-son konvensiyalari talablariga to‘la muvofiq emasligini aniqlaydi. U xorijiy tajribadan kelib chiqib, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksni davlat mehnat inspektorining faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun maxsus norma bilan to‘ldirishni hamda takroriy qilmish uchun kuchaytirilgan sanksiya belgilashni taklif etadi. Muallif majburiy mehnat dalillarining tez yo‘qolishi va majburlashning og‘zaki shaklidan kelib chiqib, inspektorlar faoliyatini kuzatuv kameralari (body yoki mobil) bilan mustahkamlash zarurligini asoslaydi, bu nazorat jarayonining shaffofligini va dalillarning isbotlanishini ta’minlaydi.

Dissertant Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi 431-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-ilovasidagi ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorning elektron shaklida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks 309-moddasining ikkinchi qismi talab qiladigan «ishni ko‘rib chiqish chog‘ida aniqlangan holatlarning bayoni» maydoni mavjud emasligini aniqlaydi. Tizim orqali milliondan ortiq ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganini inobatga olib, muallif buni ko‘p marta takrorlanuvchi tizimli qonun buzilishi sifatida baholaydi va elektron shaklga alohida maydon kiritish, u to‘ldirilmagan holda qarorni yakunlashni texnik jihatdan cheklash taklifini ilgari suradi.

Muallif «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunda raqamli nazoratning huquqiy asoslari hamda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning prokuror nazoratidagi o‘rni belgilanmaganligini aniqlab, Qonunning 3, 6, 20, 21, 22-moddalariga va elektron prokuror nazorati institutini joriy etuvchi yangi 22^1-moddaga doir oltita o‘zaro bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritishni taklif etadi. Ular umumiy normadan maxsus vakolatga, undan esa kafolatlarga qarab tizimli izchillikda joylashtirilgan. Shuningdek, Bosh prokuroming 166-son buyrug‘ining 7.3-bandini sohaga doir to‘rt yo‘nalishni qamrab oluvchi xatboshi bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Dissertant bobning so‘nggi paragrafida prokuror tekshiruviga mualliflik ta’rifi berib, tekshiruvlarni to‘rtta mustaqil mezon bo‘yicha tasniflaydi va D.Kuular, O.Korshunova, L.Potapova, V.Lomovskiy, A.Shcherbakov, G.Ivantsova, A.Komilov, B.Po‘latovlarning qarashlarini tahlil qiladi. Uning xulosasiga ko‘ra, tekshiruv to‘rt bosqichda tashkil etilishi lozim, bunda to‘rtinchi bosqich – ta’sir choralari ijrosi ustidan nazorat – faqat o‘sha tekshiruv natijasida qo‘llanilgan hujjatlar bilan chegaralanadi.

Dissertant tekshiruvlarni o‘tkazilish vaqti va mavsumiyligi (mavsumiy-maqsadli va rejadan tashqari), tashkil etish shakli (yakka tartibdagi va komissiyaviy), o‘tkazish usuli (bevosita va masofaviy-raqamli) hamda o‘tkazish asosi (reja asosidagi, xabar asosidagi va nazorat tartibidagi) bo‘yicha tasniflab, ularni yarim yillik ish rejasida mavsumiylik, xavf darajasi va axborot manbai bo‘yicha oldindan taqsimlashni taklif etadi. U tekshiruvni to‘rt bosqichda tashkil etishni asoslaydi: birinchi bosqichda idoralararo ma’lumotlar xavf indikatorlari bo‘yicha baholanadi, ikkinchida mehnatga jalb etishning amaldagi ixtiyoriyligi hujjatlardan tashqari manbalar orqali tekshiriladi, chunki majburlash alomatlari asosan jabrlanuvchining tushuntirishlaridan aniqlanadi, u esa ish beruvchiga qaramligi sababli ko‘pincha haqiqiy holatni bayon etmaydi, uchinchida tahliliy ma’lumotnoma tuzilib, prokuror nazorati hujjati qo‘llaniladi, to‘rtinchida uning ijrosi ustidan nazorat o‘rnatiladi.

Muallif rejalashtirishni tekshiruvning bosqichi emas, balki undan oldin obyektni tanlashni belgilovchi mustaqil tahliliy faoliyat sifatida baholaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining xavfga asoslangan nazorat tamoyillariga tayanib, majburiy mehnat xavfining oltita o‘lchanadigan indikatorini ishlab chiqadi va ularni ekspert baholash usuli bilan aniqlangan indikatorning salmog‘i asosida ballab baholash modelini asoslaydi. Shu asosda prokuror tekshiruvini o‘tkazish rejasining namunaviy loyihasi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati samaradorligini oshirish masalalari» deb nomlanib, unda majburiy mehnatga qarshi kurashish, ushbu sohada prokuratura organlari faoliyatiga doir xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda prokuror nazoratini raqamlashtirishning huquqiy modeli va kafolatlari tadqiq etilgan.

Dissertant xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyotining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida prokuraturaning sohadagi roli ikki asosiy modelda namoyon bo‘lishini aniqlaydi. Jinoiy ta’qib modelida (AQSH, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya) prokuror huquqbuzarlikni aniqlamaydi, biroq aniqlash organi protsessual jihatdan unga bog‘langan. Germaniyada bojxonaning «Finanzkontrolle Schwarzarbeit» xizmati xodimlari prokuraturaning tergov shaxslari maqomiga ega, Niderlandiyada mehnat inspeksiyasining tergov bo‘linmasi prokuror vakolati ostida ishlaydi,

Yaponiyada mehnat inspektorlari sud politsiyasi vazifalarini bajaradi. Muallif modelning kuchini aniqlash va ta’qib bosqichlarining uzviyligida deb baholaydi.

Umumiy nazorat modelida (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston) prokuror jinoyat ishi doirasidan tashqarida ham aralashish imkoniga ega bo‘lib, uning ta’sir vositalari – protest, taqdimnoma, ko‘rsatma, ogohlantiruv va da’vo arizasi – ancha keng. Tadqiqotchi Braziliya va Argentina tajribasini ikkala modelga kirmaydigan uchinchi yo‘l deb baholaydi: Braziliyada Mehnat prokuraturasining mustaqil tarmog‘i jinoiy ta’qib, ommaviy fuqarolik da’vosi va bitim-majburiyat vositalarini bir vaqtda qo‘llash imkonini beradi, Argentinada ixtisoslashuv PROTEX bo‘linmasi darajasida institutsionallashtirilgan.

Dissertant xorijiy mexanizmlarni tanlab qabul qilish zaruratidan kelib chiqib, retsepsiya imkoniyatini baholashning beshta mezonini – konstitutsiyaviy muvofiqlik, protsessual singdirilish, xarajat, mavjud taqsimotni saqlash va o‘lchanadigan natija mezonlarini taklif etgan va har bir mexanizmni shu asosda baholagan: o‘nta mexanizmdan to‘rttasi qabul qilinadigan, to‘rttasi moslashtirilgan holda qabul qilinadigan, ikkitasi qabul qilinmaydigan deb topilgan.

Shu asosda u inspektorning nazorat obyektlariga erkin kirish vakolati va to‘sqinlik uchun javobgarlikni milliy qonunchilikda nazarda tutish mumkin deb hisoblaydi, mehnat inspektorlariga tergov vakolatini berish hamda alohida Mehnat prokuraturasi tarmog‘ini tashkil etishni milliy huquqiy tizimning o‘zagini o‘zgartirishni talab qilgani sababli rad etadi. Muallif tahlil natijalarini jadvalda umumlashtirib, retsepsiya qilish mumkin bo‘lgan mexanizmlar prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomini o‘zgartirmasligini ko‘rsatadi.

So‘nggi paragrafda prokuror nazoratini raqamlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif V.Isayenko va A.Yershovning qarashlarini, A.Komilovning argumentlarini, A.Addo va P.Senyoning axborot tizimlari salohiyatining qasddan cheklanishi haqidagi xulosalarini tahlil qiladi. Ilmiy munozaralardan kelib chiqib, dissertant prokuror nazoratini raqamlashtirishning ikki bosqichli modelini (*axborot-tahliliy bosqich avtomatlashtiriladi, huquqiy baholash esa prokuror vakolatida qoladi*) taklif etadi. Ikki bosqich o‘rtasidagi chegara raqamli nazoratning asosiy huquqiy kafolati sifatida belgilanadi – tizim shakllantirgan xabar qonun buzilishi aniqlanganini emas, tekshirib ko‘rilishi lozim bo‘lgan xavf belgisini anglatadi.

Shu asosda «elektron prokuror nazorati» huquqiy kategoriyasiga mualliflik ta’rifi beriladi. Dissertant sun’iy intellektni faqat axborot-tahliliy bosqichda qo‘llash mumkinligini asoslab, uning to‘rtta yo‘nalishini (idoralararo ma’lumotlarni solishtirish, xavf ballini hisoblash va obyektlarni toifalash, matnli xabarlarni majburiy mehnat belgilari bo‘yicha tasniflash, mavsumiy-hududiy dinamikani prognozlashtirish) hamda faqat prokuror vakolatida qoladigan beshta holatni (xabarni huquqiy malakalash, tekshiruv tayinlash, ta’sir chorasini tanlash, prokuror hujjatini shakllantirish va jabrlanuvchi maqomini belgilash) aniq belgilaydi.

Ilmiy ishda raqamlashtirishning amaliy cheklovlari ham ko‘rsatilgan. Muallifga ko‘ra, raqamlashtirish prokurorning ish hajmini kamaytirmaydi, aksincha avtomatik xabarlar oqimi uni oshiradi, shu bois xabarlarni saralash mexanizmi joriy etilishi, tizim aniqlagan har qanday nomuvofiqlik prokurorga yuborilmasligi kerak.

Tadqiqot mobaynida prokuratura va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi axborot tizimlarini integratsiya qilish bo‘yicha Tartib loyihasi ishlab chiqilib,

o‘n ikki bosqichli integratsiya mexanizmi taklif etiladi. Bunda ishning prokuror hujjati bajarilganda emas, shaxsning buzilgan huquqi amalda tiklanganligi tasdiqlanganda yakunlanishi integratsiyaning hal qiluvchi huquqiy sharti sifatida belgilanadi.

XULOSA

«Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish» mavzusidagi dissertatsiya yakuni bo‘yicha nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Ilmiy ishda «majburiy mehnat», «majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati», «majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi» va «elektron prokuror nazorati» tushunchalari konseptual va metodologik jihatdan tahlil etilib, quyidagi mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi:

*«**Majburiy mehnat** - har qanday shaxsdan jazo qo‘llash tahdidi ostida talab qilinadigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o‘z xizmatlarini taklif etmagan har qanday ish yoki xizmat. Shaxsning roziligi erkin va xabardor tarzda shakllanmagan yoxud mehnat munosabati davomida saqlanmagan, jumladan, u ishni erkin tark etish imkoniyatidan mahrum etilgan yoki bunday imkoniyat amalda cheklangan hollarda ish yoki xizmat ixtiyoriy ravishda taklif etilmagan deb hisoblanadi»;*

*«**majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati** - prokuratura organlari tomonidan majburiy mehnatni taqiqlashga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tekshirish, mehnatga jalb etishning amaldagi holatini hujjatlar va boshqa ma’lumotlar bilan solishtirish, aniqlangan holatlarga huquqiy baho berish hamda qonunbuzilishlarni bartaraf etish va aybdorlarning javobgarligi masalasini hal etish choralarini ko‘rish orqali qonuniylik holatini ta’minlashga qaratilgan mustaqil nazorat faoliyatidir»;*

*«**majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi** - vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ish beruvchilar hamda majburiy mehnatga qarshi kurashish bo‘yicha vakolatli komissiyalar tomonidan mehnatga majburlashni taqiqlovchi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlari tiklanishi va aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishi holatini aniqlash, huquqiy baholash hamda bartaraf etish maqsadida prokuror tomonidan axborot-tahliliy faoliyat asosida rejalashtiriladigan va belgilangan bosqichlarda amalga oshiriladigan nazorat tadbirlari majmui»;*

*«**elektron prokuror nazorati** - prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazoratning davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlariga masofadan kirish hamda prokuratura organlari axborot tizimlarini ular bilan integratsiya qilish orqali ma’lumotlarni yig‘ish, solishtirish va xavf darajasini baholash*

avtomatlashtirilgan, huquqiy baho berish esa prokuror vakolatida saqlangan holda amalga oshirilishidir».

2. Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadi - taqiqlovchi normalarning to‘liq va bir xilda ijro etilishiga asoslangan qonuniylik holatiga erishish, qonuniylikning mustahkamlanishi va mehnat huquqlarining himoya qilinishi esa unga erishishning *natijasi* hamda *ijtimoiy samarasi* sifatida farqlandi.

3. Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining predmeti va obyektini farqlashning mualliflik mezoni asoslantirildi: predmet – qonun bilan yuklatilgan majburiyatning bajarilish holati, obyekt esa ushbu majburiyatning bajarilishi tekshiriladigan organ yoki tuzilmadir. Shu asosda sohadagi nazorat predmetining besh unsurli modeli *(majburiy mehnatni taqiqlashga doir talablarga rioya etilishi, mehnatga jalb etishga doir huquqiy hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi, mehnatga jalb etish va uni davom ettirishning ixtiyoriyligi, jabrlanuvchi huquqlarini tiklash, zararni qoplash va aybdorlar javobgarligi masalasini hal etish majburiyatining bajarilishi, xalqaro shartnoma normalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning huquqni qo‘llash amaliyotida bajarilishi)* hamda nazorat obyektlarining uch guruhli *(vakolatli organlar, idoralararo muvofiqlashtirish tuzilmalari - milliy va hududiy komissiyalar, mehnatga jalb etishni tashkil qiluvchi va mehnatdan foydalanuvchi subyektlar - mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxona, tashkilot, muassasalar va ish beruvchilar)* tasnifi ishlab chiqildi.

4. Majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining oltita o‘ziga xos xususiyati aniqlandi: 1) predmetning yagonaligi va uni aniqlashda ikki xil axborot manbaiga tayanilishi; 2) huquqbuzarlikning latentligi va axborot-tahliliy faoliyatning ustuvorligi; 3) idoralararo yo‘nalganlik; 4) jabrlanuvchiga qaratilganlik va uni javobgarlikdan ozod etish kafolati; 5) profilaktik ustuvorlik; 6) xalqaro-huquqiy o‘lchovning predmetga kiritilishi.

5. Prokuror nazorati doimiy funksiya, tekshiruv esa uni amalga oshirishning aniq boshlanish va yakunlanish nuqtasiga ega huquqiy shakli ekanligi asoslantirildi. Prokuror tekshiruvlari to‘rtta mustaqil mezon - o‘tkazilish vaqti va mavsumiyligi, tashkil etish shakli, o‘tkazish usuli va o‘tkazish asosi - bo‘yicha tasniflandi hamda tekshiruv to‘rt bosqichda tashkil etilishi ko‘rsatildi; ikkinchi bosqichning hal qiluvchi vazifasi sifatida mehnatga jalb etishning amaldagi ixtiyoriyligini hujjatlardan tashqari manbalar orqali tekshirish belgilandi. To‘rtinchi bosqich - ta’sir choralari ijrosi ustidan nazorat - faqat o‘sha tekshiruv natijasida qo‘llanilgan hujjatlar bilan chegaralanadi, yangi faktik holatlarni aniqlash zarurati yuzaga kelganda mustaqil nazorat tartibidagi tekshiruv o‘tkaziladi. Rejalashtirish esa obyekt tanlashni belgilovchi mustaqil tahliliy faoliyat sifatida baholandi.

6. Majburiy mehnat xavfining oltita o‘lchanadigan indikatori (mavsumiy kampaniyalarga jalb etilish va mavsumiy xodimlar harakati, xodimlarning ish kunida ommaviy ravishda ish joyida bo‘lmasligi, ish haqining kechiktirilishi, ilgarigi murojaat yoki ma’muriy ish mavjudligi, inspeksiya aniqlagan buzilishlarning bartaraf etilmaganligi, xodimlarning mehnat shartnomasisiz yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlatilishi ulushi) ularning o‘lchov manbalari bilan ishlab chiqilib, ball

koeffitsiyenti berish modeli aniqlashtirildi. Bunda: har bir indikator 0 dan 5 ballgacha (0 - belgi mavjud emas; 1-2 - yakka holat; 3-4 - takrorlanuvchi holat; 5 - tizimli holat) baholanib, ekspert baholash usuli bilan aniqlangan salmoqqa (1,0–2,0) ko‘paytiriladi, eng yuqori ball 50 ballni tashkil etadi. Obyektlar avval mutlaq ball bo‘yicha uch toifaga ajratiladi, so‘ngra toifa ichida obyektning hudud ro‘yxatidagi o‘rni (yuqori 20 foiz) hisobga olinib tekshiruv navbati belgilanadi, bu esa modelning hududlar kesimida turlicha qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

7. Majburiy mehnat taqiqidan istisno qilinadigan ishlarning qonuniyligini baholash uchun sakkizta mezon (ishni bajarishning aniq normativ-huquqiy asosga egaligi, obyektiv zaruratning mavjudligi, ish hajmi va davomiyligining ko‘zlangan maqsadga mutanosibligi, kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, xavfsiz mehnat sharoitlarining ta’minlanishi, samarali davlat nazoratining mavjudligi, shaxsning shikoyat qilish imkoniyati kafolatlanganligi, mahkumning xususiy subyekt ixtiyoriga majburan berilmasligi) taklif etildi hamda majburiy mehnatni turdosh huquqiy hodisalardan - mehnatga ma’muriy tarzda majburlash, qullik, odam savdosi, mehnat ekspluatatsiyasi, bolalar mehnati va haq to‘lanmaydigan mehnatdan - farqlashning beshta mezoni (huquqiy nazoratning obyekti, qilmishning tuzilishi, majburlashning funksiyasi, shaxs ustidan amalga oshirilgan nazorat darajasi va hodisaning mustaqil huquqbuzarlik yoki boshqa jinoyat maqsadi sifatida namoyon bo‘lishi) ishlab chiqildi.

8. 2021-2025-yillar va 2026-yilning 9 oyida sodir etilgan huquqbuzarliklarning 183 tasi (74%) byudjet tashkilotlariga, shundan 88 tasi maktablarga to‘g‘ri keladi. 2023-2025-yillarda ta’mirlangan 1 980 ta maktabdan 593 tasida ta’mir byudjetdan tashqari manbalar, ota-onalar va homiylarning mablag‘lari hisobidan bajarilgani kuzatilib (mazkur farq turli hisob doiralari bilan ham izohlanishi mumkinligi sababli faraz sifatida baholandi), ta’mir va obodonlashtirish davrini mustaqil xavf indikatori, idoraviy hisobotlarni esa rejalashtirish uchun axborot manbai sifatida e’tirof etish taklif etildi.

II. Milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 148²-moddasidagi ma’muriy preyuditsiyaga asoslangan tuzilishi ham XMTning 29-son Konvensiyasi 25-moddasining talablariga (qilmishning jinoyat sifatida jazolanishi, jazoning haqiqatan yetarli bo‘lishi va qat’iy ijro etilishi), ham jinoyat huquqi nazariyasiga muvofiq emasligi asoslantirildi. Xususan, 143 ta davlat qonunchiligining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning 59 tasida (41,3%) majburiy mehnat uchun odam savdosi tarkibidan ajratilgan mustaqil jinoiy javobgarlik belgilangan, 82 tasida (57,3%) qilmish odam savdosi yoki qullik to‘g‘risidagi moddalar orqali kvalifikatsiya qilinadi, O‘zbekistondan boshqa hech bir davlatda jinoiy javobgarlik oldingi ma’muriy jazoga bog‘lanmagan. Shunga ko‘ra, «Majburiy mehnat uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ishlab chiqildi:

*«**148²-modda. Majburiy mehnat***

Majburiy mehnatdan foydalanish, ya’ni har qanday shaxsdan jazo qo‘llash tahdidi ostida talab qilinadigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o‘z xizmatlarini taklif etmagan har qanday ish yoki xizmatni bajartirish, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Majburiy mehnatdan foydalanish:

a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

b) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

v) homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan;

g) ta’lim tashkilotining pedagog xodimiga nisbatan;

d) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (Qonun loyihasi dissertatsiyaning 1-ilovasida keltirilgan).

10. Davlat mehnat inspektorining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun maxsus javobgarlik belgilanmaganligi Xalqaro mehnat tashkilotining 81-son Konvensiyasi 18-moddasi va 129-son Konvensiyasi 24-moddasi talablarining amalda ta’minlanmasdan qolishiga olib kelayotganligi aniqlandi. Xorijiy davlatlarning (*Fransiya, Ispaniya va Rossiya*) ilg‘or tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksni quyidagi mazmundagi maxsus norma bilan to‘ldirish taklif etildi:

«198[10]-modda. Davlat mehnat inspektorining qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uning xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilish

Davlat mehnat inspektorining qonuniy faoliyatiga aralashish, uning tekshirish (monitoring) o‘tkazishiga to‘sqinlik qiladigan sharoit yaratish, shu jumladan tekshirilayotgan subyektning hududi, binolari va inshootlarini ko‘zdan kechirish uchun ularga kiritishni rad etish, so‘ralgan hujjatlarni, ma’lumotlarni yoki yozma tushuntirishlarni taqdim etishdan asossiz bosh tortish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Mehnat va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishini bartaraf etishga doir davlat mehnat inspektorining yozma ko‘rsatmasini uzrli sabablarsiz belgilangan muddatda bajarmaslik, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan, ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan huquqbuzarlik, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi». (Qonun loyihasi dissertatsiyaning 2-ilovasida keltirilgan).

11. «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunda axborot tizimlariga masofaviy kirish, elektron monitoring, integratsiya orqali ma’lumot olish va raqamli dalillarning yaxlitligini

ta’minlash tartibi belgilanmagani, shuningdek ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asosi va prokuror nazorati predmeti sifatida ko‘rsatilmagani aniqlanib, «Prokuror nazoratini raqamlashtirish hamda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar ijrosi ustidan nazoratni mustahkamlash munosabati bilan «Prokuratura to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi quyidagi mazmundagi qonun loyihasi ishlab chiqildi:

1) 3-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«3-modda. Prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslari

Prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi, shuningdek ularning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi»;

2) 6-modda quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

«Prokuratura organlari uchun zarur bo‘lgan axborot, hujjatlar, materiallar va boshqa ma’lumotlar, shu jumladan elektron hujjatlar hamda elektron shakldagi ma’lumotlar prokurorning talabiga muvofiq yoxud axborot tizimlarining integratsiyasi orqali bepul taqdim etiladi»;

3) 20-modda quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

«O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning bevosita qo‘llaniladigan qoidalari talablariga rioya etilishi ham nazorat predmeti hisoblanadi»;

4) 21-modda quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

«Qonunlar ijrosini tekshirish elektron hujjatlarni, ma’lumotlarni va materiallarni masofadan turib monitoring qilish hamda o‘rganish orqali ham amalga oshirilishi mumkin»;

5) 22-modda quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

«Prokuror o‘z vakolatlari doirasida davlat organlari va tashkilotlarining axborot infratuzilmasi obyektlariga, axborot tizimlariga, axborot resurslariga, ma’lumotlar banklari va bazalariga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda kirish, elektron hujjatlar va ma’lumotlarni ko‘rish, monitoring qilish, o‘rganish hamda olish huquqiga ega»;

6) Qonun quyidagi mazmundagi 22¹-modda bilan to‘ldirilsin:

«22¹-modda. Elektron prokuror nazorati

Elektron prokuror nazorati — prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazoratning davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlariga masofadan kirish hamda prokuratura organlari axborot tizimlarini ular bilan integratsiya qilish orqali, ma’lumotlarni yig‘ish, solishtirish va xavf darajasini baholash avtomatlashtirilgan, huquqiy baho berish esa prokuror vakolatida saqlangan holda amalga oshirilishidir.

Elektron prokuror nazorati axborot tizimlarining integratsiyasi, axborot tizimlariga masofadan kirish hamda xavfni tahlil qilish ma’lumotlarini o‘rganish usullarida amalga oshiriladi.

Axborot tizimlariga kirish huquqi prokuratura organlarining mansabdor shaxslariga faqat xizmat vazifalarini bajarish maqsadida, ularning vakolatlari doirasida beriladi. Olingan ma'lumotlardan shaxsiy va boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Prokuratura organlarining mansabdor shaxslari tomonidan axborot tizimlarida amalga oshirilgan elektron harakatlar audit jurnalida qayd etiladi. Audit jurnalini yuritish tartibi qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

Elektron prokuror nazorati doirasida olingan elektron hujjatlar va ma'lumotlarning kelib chiqishi, yaxlitligi va o'zgartirilmaganligi ta'minlanadi. Prokuror tomonidan axborot tizimlaridagi ma'lumotlarga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Elektron prokuror nazorati amalga oshirilganda shaxsga doir ma'lumotlar, davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda himoya qilinadi.

Davlat organlari va tashkilotlar o'z axborot tizimlarining prokuratura organlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini hamda prokurorning ularga masofadan kirishini ta'minlash uchun zarur tashkiliy va texnik sharoitlarni yaratadi.

Elektron prokuror nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga asossiz aralashishga yo'l qo'ymagan holda amalga oshiriladi». (Qonun loyihasi dissertatsiyaning 3-ilovasida keltirilgan).

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi «Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida»gi 431-son qarori bilan tasdiqlangan «Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida»gi Nizomning 3-ilovasidagi ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorning elektron shaklida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 309-moddasining ikkinchi qismi talab qiladigan «ishni ko'rib chiqish chog'ida aniqlangan holatlarning bayoni» maydoni mavjud emasligi aniqlandi. Tizim orqali milliondan ortiq ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganini inobatga olib, bu yakka holdagi xato emas, ko'p marta takrorlanuvchi tizimli qonun buzilishi sifatida baholandi va elektron shaklga alohida maydon kiritishni nazarda tutuvchi mazkur qarorga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror loyihasi ishlab chiqildi *(Qaror loyihasi dissertatsiyaning 4-ilovasida keltirilgan).*

13. Majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy nazoratning huquqiy asoslari XMTning 81 va 129-son konvensiyalari talablariga to'la muvofiq emasligi aniqlanib, inspektorlar shtatini 81-son Konvensiyaning 10-moddasi mezonlari asosida qayta ko'rib chiqish, moddiy-texnik ta'minotni Konvensiyaning 11-moddasi darajasiga yetkazish, jumladan paxta dalalari va ish joylarida kuzatuv kameralari (body yoki mobil) yordamida monitoring orqali dalil bazasini mustahkamlash, 129-son Konvensiyaning 3-moddasi talabini bajarish uchun qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat mehnat inspektorlari lavozimini joriy etish, inspeksiyaning xavf tahlili orqali baholash vakolatini qonunchilikda mustahkamlash hamda tekshiruvlarni vakolatli organ bilan oldindan kelishish tartibidan xabardor etish tartibiga o'tkazish taklif etildi. Mazkur tavsiyalardan uchtasi tadqiqot davrida amaliyotga joriy etildi: qishloq xo'jaligi bo'yicha

davlat mehnat inspektorlari instituti Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-noyabrdagi 706-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 65-bandida, inspektorlarni texnik vositalar bilan ta’minlash masalasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi PF-246-son Farmonining 4-bandida, tekshiruvlarni xabardor etish tartibiga o‘tkazish esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-son Farmonining 2-ilovasi 3-bandida o‘z aksini topgan.

III. Prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan xulosa va tavsiyalar:

14. Bosh prokuroming 2017-yil 24-noyabrdagi 166-son buyrug‘ining 7.3-bandiga to‘rt yo‘nalishni - fuqarolarning mehnat huquqlari ta’minlanishi, bunda tazyiq, zo‘ravonlik va majburiy mehnat bilan bog‘liq murojaatlarning ko‘rib chiqilishining qonuniyligi, davlat axborot tizimlari va xavfni tahlil qilish ma’lumotlari asosida tazyiq, zo‘ravonlik va majburiy mehnat belgilarining masofaviy aniqlanishi, xodimlarni qonunda nazarda tutilmagan ishlarga va haq to‘lanmaydigan navbatchilikka jalb qilish hamda hasharlarni o‘tkazishda qonuniyligi, bolalar mehnatidan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi - qamrab oluvchi xatboshi bilan to‘ldirish taklif etildi. *(Bosh prokuror buyrug‘i loyihasi dissertatsiyaning 5-ilovasida keltirilgan).*

15. Prokuratura organlari hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi axborot tizimlarini integratsiya qilish yuzasidan Tartib loyihasi ishlab chiqilib, integratsiyaning o‘n ikki bosqichli mexanizmi taklif etildi. Integratsiyaning hal qiluvchi huquqiy sharti sifatida ish prokuror hujjati bajarilganda emas, balki shaxsning buzilgan huquqi amalda tiklanganligi tasdiqlanganda yakunlanishi belgilandi *(Tartib loyihasi dissertatsiyaning 6-ilovasida keltirilgan).*

16. Tadqiqot doirasida «Majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o‘tkazishning namunaviy rejasi» loyihasi ishlab chiqildi. Unda tekshiruvning asosi, maqsadi va predmeti, qamrab olinadigan davr, tekshiriladigan obyektlar, har bir obyekt bo‘yicha o‘rganiladigan masalalar doirasi hamda talab qilib olinadigan hujjat va ma’lumotlar aks ettirilgan. Loyihaning amaliyotga joriy etilishi tekshiruvlarni yagona uslubiy asosda o‘tkazish, sohaga xos masalalarning e’tibordan chetda qolishiga yo‘l qo‘ymaslik va tekshiruv natijalarining qiyoslanuvchanligini ta’minlash imkonini beradi. *(Tekshirish rejasi loyihasi dissertatsiyaning 7-ilovasida keltirilgan).*

17. Prokuror nazoratini raqamlashtirishning ikki bosqichli modeli ishlab chiqildi: axborot-tahliliy bosqich avtomatlashtiriladi, huquqiy baholash esa prokuror vakolatida qoladi, bu esa raqamli nazoratning asosiy huquqiy kafolati hisoblanadi. Shu asosda «elektron prokuror nazorati» tushunchasiga mualliflik ta’rifi berilib, sun’iy intellektni qo‘llash mumkin bo‘lgan to‘rtta yo‘nalish hamda faqat prokuror vakolatida qoladigan beshta holat aniq belgilandi.

18. Raqamlashtirish samaradorligini baholashning yettita: a) xavf xabaridan prokurorning huquqiy bahosigacha o‘tgan vaqt; b) tasdiqlangan va tasdiqlanmagan xabarlar ulushi; v) tahliliy xabarga asosan boshlangan tekshiruvlar ulushi; g) huquqi tiklangan shaxslar soni; d) undirilgan ish haqi va qoplangan zarar miqdori; ye) prokuror hujjati talablarining muddatida to‘liq ijro etilishi; yo) inson aralashuvisiz huquqiy oqibat keltirgan xabarlar soni (*ushbu indikator nolga teng bo‘lishi shart*) indikatorlar taklif etildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ АКАДЕМИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРАВООХРАНИТЕЛЬНАЯ АКАДЕМИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АХМЕДОВ АБДУЛАТИФ МАШРАПОВИЧ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОКУРОРСКОГО НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ПРИНУДИТЕЛЬНОМУ ТРУДУ

12.00.07 – Судебная власть. Прокурорский надзор. Организация правоохранительной деятельности. Адвокатура

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по юридическим наукам

г. Ташкент – 2026 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/Yu1314.

Диссертация выполнена в Правоохранительной академии Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.proacademy.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Комилов Авазбек Бокижонович** доктор юридических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Исмоилов Шухратжон Абдусаминович** доктор юридических наук, доцент
	Султонов Ойбек Султонбоевич доктор философии юридическим по наукам
Ведущая организация:	**Академия правосудия Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится 30 ноября 2026 года, в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.24/2025.27.12.Yu.01.01 при Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Адрес: 100190, г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Рихсилий, 9. Тел.: (99871) 202-04-96, e-mail: info@proacademy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Правоохранительной академии Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 108). Адрес: 100190, г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Рихсилий, 9. Тел.: (99871) 202-04-96.

Автореферат диссертации разослан 17 ноября 2026 года.
(протокол реестра рассылки № 27 от 17 ноября 2026 года).

М.А.Аминжонова
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

Х.А.Кучкаров
Секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

А.С.Одинаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире принудительный труд по-прежнему остаётся одной из наиболее массовых форм нарушения прав человека. По данным Международной организации труда (далее - МОТ), Walk Free и Международной организации по миграции, в мире 49,6 миллиона человек находятся в условиях современного рабства, из них 27,6 миллиона являются жертвами принудительного труда. Более 12 миллионов лиц, находящихся в современном рабстве, то есть примерно каждый четвёртый, - дети[1]. Согласно докладу Международной организации труда за 2024 год, ежегодный незаконный доход от принудительного труда составляет 236 млрд долларов США[2]. Эти показатели сделали противодействие принудительному труду одной из приоритетных задач международного сообщества.

В мире особое внимание уделяется совершенствованию организационно-правовых основ прокурорского надзора за исполнением законодательства в сфере противодействия принудительному труду. Работа в данной области ведётся по трём основным направлениям: законодательное закрепление принудительного труда в качестве самостоятельного состава преступления, усиление системы инспекции труда, а также перевод контроля на цифровой мониторинг, основанный на анализе рисков. В частности, в аналитическом документе Международной организации труда «Криминализация принудительного труда» от мая 2025 года отмечается, что, поскольку принудительный труд является тяжким преступлением, одних лишь административных санкций недостаточно[3]. Регламент Европейского союза № 2024/3015 от 27 ноября 2024 года, запретив размещение на рынке продукции, произведённой с использованием принудительного труда, превратил риск-ориентированную модель контроля в правовой инструмент противодействия принудительному труду[4].

В нашей стране в 2021-2025 годах и за 9 месяцев 2026 года зарегистрировано 246 правонарушений, связанных с административным принуждением к труду, при этом к принудительному труду были привлечены 1 922 гражданина, из них 1 074 - женщины, 67 - несовершеннолетние. Увеличение за последние пять лет числа потерпевших, приходящихся на один случай

---

[1] Global Estimates of Modern Slavery: Forced Labour and Forced Marriage / International Labour Organization, Walk Free, International Organization for Migration. – Geneva: ILO, 2022. – P. 2, 20. – ISBN 978-92-2-037483-2. – URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/2025-09/ILO_GEMS-2022_Report_EN_Web.pdf (дата обращения: 14.09.2026).

[2] Profits and Poverty: The Economics of Forced Labour. – 2nd ed. – Geneva: International Labour Organization, 2024. – 36 p. – P. 1, 13. – ISBN 978-92-2-040422-5. – DOI: 10.54394/JJJE9035. – URL: https://doi.org/10.54394/JJJE9035 (дата обращения: 14.09.2026).

[3] International Labour Organization. Criminalization of Forced Labour. ILO Brief: Promising Practices in Addressing Forced Labour. – Geneva: ILO, May 2025. – 5 p. – P. 1. – DOI: 10.54394/HKHH7594. – URL: https://www.ilo.org/publications/criminalization-forced-labour (дата обращения: 14.09.2026).

[4] Regulation (EU) 2024/3015 of the European Parliament and of the Council of 27 November 2024 on prohibiting products made with forced labour on the Union market and amending Directive (EU) 2019/1937 // Official Journal of the European Union. – L, 2024/3015, 12.12.2024. – URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/3015/oj (дата обращения: 14.09.2026).

правонарушения, с 4 до 8 человек свидетельствует о том, что прокурорский надзор за исполнением законодательства в сфере противодействия принудительному труду не даёт достаточного эффекта[1].

В настоящее время состояние прокурорского надзора в данной сфере свидетельствует о необходимости его совершенствования. Анализ изученных в рамках исследования 246 административных постановлений, 38 актов прокурорского надзора, 11 материалов об отказе в возбуждении уголовного дела и 13 судебных решений позволил выявить системные недостатки по трём направлениям надзора. Во-первых, надзор осуществляется неодинаково в разрезе регионов, во-вторых, 74 процента правонарушений приходится на бюджетные организации, в-третьих, в 9 из 13 изученных судебных дел не представлены объективные доказательства, подтверждающие факт принуждения, а в 3 случаях суд отменил решение органа ведомственного контроля[2]. Приведённые статистические показатели и международные рекомендации превращают совершенствование прокурорского надзора за исполнением законодательства в данной сфере в актуальную задачу.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в Конституции Республики Узбекистан (2023), Трудовом кодексе (2022), Кодексе об административной ответственности (1994) и Уголовном кодексе (1994), законах «О прокуратуре» (2001), «О противодействии торговле людьми» (2020), указах Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по противодействию торговле людьми и широкому внедрению принципов достойного труда» (2023), «Об утверждении Стратегии «Цифровая прокуратура – 2030» и мерах по её эффективной реализации» (2025), постановлении «О мерах по обеспечению безопасной и основанной на уважении рабочей среды в сфере труда» (2026), постановлениях Кабинета Министров «О дополнительных мерах по искоренению принудительного труда в Республике Узбекистан» (2018), «О мерах по внедрению механизмов обеспечения безопасной и основанной на уважении рабочей среды в сфере труда в государственных органах и организациях» (2026), а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Вопросы прокурорского надзора за исполнением законодательства в сфере противодействия принудительному труду

[1] Отчёты об административных штрафах, применённых за принудительный труд в 2021–2025 годах и за 9 месяцев 2026 года, представленные письмом Министерства по сокращению бедности и занятости Республики Узбекистан от 12 октября 2026 года № 01/00-01/14-4537.

[2] Электронная платформа «Adolat» Верховного суда Республики Узбекистан. – URL: https://public.sud.uz/report (дата обращения: 14.09.2026).

изучались в юридической литературе в различных аспектах. Материально-правовые аспекты принудительного труда и трудового права исследованы отечественными учёными М.М.Мамасиддиковым, Ж.А.Расуловым, Д.С.Абдуллаевой, Ш.А.Исмоиловым и Х.К.Мирсоатовым, а относящаяся к прокурорскому надзору часть темы в отраслевом разрезе - М.М.Бобоевым, Ш.Б.Жумаевым, Д.Ш.Ибрагимовым, А.Б.Комиловым, О.М.Мадалиевым, Б.Х.Пулатовым, М.Х.Рустамбаевым, Ф.Х.Рахимовым, У.А.Тухташевой.

